

TALABALAR TARJIMONLIK QOBILYATI ASOSLARINI SHAKLLANTIRISHDA  
NUTQ FAOLIYATINING VA MASOFAVIY TA'LIMNING O'RNI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7831326>

**Jurakulova Nozanin**

*Samarqand Davlat chet tillar instituti 2- kurs magistr*

*Annotatsiya: Ushbu maqolada tarjimonlik tarixi hamda uni shakllantirishda nutq faoliyatining roli qandayligi haqida, tarjimonlikni masofadan turib urganish mumkinligi, ko'nikma va malakalarning oshib borishi, tarjimonkini tarixi va hozirgi yangi talqini yoritilib berilgan.*

*Kalit so'zlar: pedagogika, tilshunoslik, lug'at, tarjimon, masofaviy ta'lim, inovatsiya*

Tarjima va tarjimonlik ijodiy faoliyat sohalaridan biri hisoblanib u yer yuzining turli tuman joylarida bir necha ming yildan buyon umrguzaronlik qilib kelayotgan insonlar nasllari o'z ijodkorlik havaslari, qiziqishlari, imkoniyatlari hamda manfaatlarini tarjima vositasida ham namoyon qilishadi. Uni xalqlararo aloqa vositasiga aylantirdi, undan doim samarali tarzda foydalandi. Tarjima va tarjimonlar orqali insoniyat qavmlari bir-birlaridan xabardor bo'ldi, o'zaro borish-kelish qildi. Shu bilan birga savdo, hunarmandchilik, uy-joy, yo'l qurilishi, dehqonchilik, aslahanjomsozlik kabi sohalarini asrma-asr tadrijiy rivojlantirib, yo'lga qo'yib bordi. Odam qavmlari qulay va xatarsiz hayot kechirishni bir-biridan o'rgandi, bir-biriga yo'l ko'rsatdi, bir-biridan ulgi oldi va rang-barang madaniyatlarning jozibali qirralarini bir-biriga namoyon qildi. Insoniyatning o'zaro munosabatlari, muomalalari, muloqotlari, turli-tuman aloqalarga tashna-yu ehtiyojmand karvonlari o'n ming yillardan buyon dunyo o'lkalarini kezadi, qit'alardan qit'alarga o'tadi. Ketil uzilmagan shu karvonlar safida savdogarlar, sarkardalar, olimlar, din ulamolari, targ'ibotchilar, munajjimlar, hunarmandlar, tabobatchilar, hakimlar qatorida, albatta tarjimonlar ham bo'ladilar. Til bilgich, tushuntirgich, aqlu zakovatli va hamisha hushyor, ko'proq tillami bir-biriga og'zaki o'giradigan bu kishilarga u zamonlarda tilmoch, ya'ni bir tilni ikkinchi tilga ag'daruvchi, muloqotlar va bitishuvlarni tushunarli hamda qoidali qiluvchi, tomonlar o'rtasida ahdlashuvlar va murosalarini bitiruvchi, deb qarar edilar. Qavmlar o'rtasida muomala-munosabatlarning me'yorlari, ittifoqlarning bitimlari, shartnomalari, xalqlaming o'zaro ahd-u paymonlari bilimdon tarjimonlar-tilmochlar orqali hal bo'Mardi. Tilmochlar ishlarning o'zaro muvofiq, adolatli bitishi va xalqlaming totuvliklariga xizmat qiladilar. Ular insoniyat qavmlarini turli jaholat balo-ofatlari, behuda qirg'inlardan saqlashga sa'yi-harakat qilardilar. Tilmoch o'zini tilchi deb ham bilgan, Tilmochlaming tilchiligi juda katta aqlu zakovatni talab qilar, ular tarixiy-ijtimoiy jarayonlarda paritet-tenglikni vujudga keltirishga urinardilar. Tilchi va tilmoch

hamma vaqt o‘z davri madaniyatining oldingi qatorlarida borardi. Shu tariqa tarjimonlik insoniyat yaratgan sohalar ichida bebaho, qadrlı, oliyanob, ilg‘or faoliyat turiga aylandi. Tarjimonlar xalqlaming bir-birlarini bilish va o‘rganishlariga tengsiz hissa qo‘shdi. Birinehi tarixchilar, geografiya, geodeziya bilan shug‘ullanuvchi kishilar ham tarjimonlar ichidan yetishib chiqdi. Jumladan, Immanuil Kant o‘zining falsafada buyuk inqilob yasagan “Sof aqlning tanqidi” asarida “samarali tasavvur” (продуктивное воображение) degan tushunchani kiritgan va tahlil qilib bergan. Dunyoni bilish falsafasining markazida ana shu “samarali tasavvur” turganidek, u tarjima sohasi va faoliyatining mazmunmohiyatini to‘g‘ri tushunish va tushuntirishga ham xizmat qiladi. “Samarador tasavvur” so‘zlaming quruq ma‘nolaridan nafosat yaratadi. Quruq m a‘noning nafosat mevasiga aylanishi - shaklning mazmundorlik kasb etishi tarjima ijodining dialektikasi va qimmatini belgilaydi. Kantning fikricha, idrok samarador tasavvur tufayli ongning nazoratisiz o‘z tushunchalarini hosil qiladi. Kantcha “tasavvuming saliqasi (qobiliyati) uning o‘z-o‘zidan, tabiiy bo‘lishi”. U xayoliy bir narsa bo‘lmay, hissiyot va idrok sintezining ishchi quroli. Avtaylik, rus tilida “голубой” so‘zidan “голубь” so‘zi kelib chiqdi. Keyin bir tilmoch ulardan “приголубит” degan g‘alati shoirona, harakat m a‘nosini anglatadigan obrazli so‘zni yaratdi. Bu so‘zlaming mag‘iz ma‘nosida “ko‘k”, “moviy” tushunchalari saqlangan. Ammo tamomila boshqa narsalami anglatadigan so‘zlar yaralgan. O‘zbek tilida “kabutar” (kaptar) so‘zi mavjud. lining ma‘nosini mag‘zida ham “ko‘k-moviy” tushunchasi turadi. O‘zbek tilining tarixiy qatlami ichida “ko‘karchin” degan so‘z bor. U ko‘hna lug‘atlarimiz va mumtoz adabiyotimiz matnlarida, folklor asarlarida uchrab turadi. Голубой - ko‘k-moviy, голубь - kabutar, kaptar, ko‘karchin (yovvoyi kaptami ko‘karchin deyishgan) - rus tilidagi so‘zlaming m a‘nosi bilan o‘zbek tilidagi so‘zlaming ma‘nosi va hatto kelib chiqishi - etimologiyasi ham bir-biriga aynan mos. Lekin endi rus tilida приголубит degan fe‘l so‘z hosil bo‘ladi-ku, uni o‘zbek tilida nima deymiz, nima deb ag‘daramiz? Agar qanday bo‘lsa shunday kalkalashtirsak, unda “ko‘karchinlashmoq” yoki “kaptarlamq” deyishga to‘g‘ri keladi. Ammo o‘zbek tilida hech qachon bunday g‘ayritabiiy so‘zni uchratmaganmiz, balki bundan keyin ham uchratmasak kerak. Ikki tilli lug‘atlarimizda приголубит - erkalamq, silab-siypalamq, deb tarjima qilingan. Erkalamq - o‘zbekcha-ruscha lug‘atda - баловать, ласкать, нежить, deb o‘girilgan. Lekin “приголубит” keltirilmagan. Agar “ko;k” ma‘nosini saqlagan holda “приголубит” tarjima qilinadigan bo‘lsa, unda o‘zbek. tilidagi qadimgi “ko‘kay” so‘zini qo‘llagan tarzda “ko‘kaylamq” yoki “ko‘kalamq” yoki “ko‘kaladi” deb o‘girsak, etimologiyaga benihoya mos tushgan bo‘lardi. To‘g‘ri, “Ko‘kay” besh tomlik izohli lug‘atga kiribdi. Lekin uning “ko‘ks”, “ko‘krak” degan ma‘nolari aytilmabdi. Faqat dil, ko‘ngil deb izohlanib, xalq dostonlaridan chiroyli misollar keltirilgan. Aslida ko‘kay — dilning qo‘rg‘oni. Shunda: agar Ho‘imat Asalgulning yetimcha qizini ko‘kayladi, deb misol tuzsak, bu misoldagi “ko‘kayladi” so‘zi ruscha “prigolubit” degan so‘zning ayni “oltin” tarjiması bo‘ladi. Bir zamonlar Trediakovskiy

degan shoir rus tilida hech anglab bo'lmaydigan, aytilishi ham noqulay ikki so'z o'rniga hali shungacha rus tilida bo'lmagan "vliyaniye" degan so'zni kiritgandek, boshqa bir XVIII asr shoiri Xeraskov "двусмысленность" degan so'zni, imperatritsa Yekaterina esa boloxonador ma'nosidagi "высокопарность" degan so'zni, M.V. Lomonosov esa juda ko'plab rus tili talaffuziga moslashgan yangi atamalar, neologizmlarni kiritganidek, "ko'kaylamoq" ham boshini silamoq, bag'riga olmoq ma'nolarini tilimizga muvofiq, talaffuzimizga uyg'un tarzda anglatgan bo'Mardi. Tarjima badiiy va lug'at faoliyatining spetsipik turi. Tarjima badiiy, ilmiy ijod kabi til, tafakkur va fantaziya bilan ish ko'radi. Badiiy tarjimada ma'no va uslub, kolorit bilan birga poetika asosiy o'rinlardan birini egallaydi. Poetikani chiqarish va yaratishda yuqorida aytilganidek, Kantning idrok va hissiyoti sintezi va ulardan vujudga keladigan tabiiylik birinchi darajali ahamiyatga ega. "Prigolubit" so'zini "ko'kaylamoq" deb o'girarkanmiz, so'zning tasviriy kuchini yuzaga chiqargan bo'lamiz.

19-asrning o'rtalarida chet tillarini o'qitishning grammatika-tarjima usuli (FL) juda mashhur edi. Tarjima uchun topshiriqlar chet tilini o'rgatish bo'yicha barcha mashqlarning ko'p qismini tashkil etdi. Biroq, 19-asrning oxiriga kelib, o'qitish usullarida o'zgarishlar yuz berdi, yangi usullarni izlash boshlandi, bu chet tillarini o'qitish usullariga ta'sir ko'rsatgan tegishli fanlarning rivojlanishi tufayli sodir bo'ldi. Chet tilini o'qitishda tarjimadan foydalanish maqsadga muvofiqligi haqida faol bahs-munozaralar bo'lib o'tdi va ba'zi metodistlar tarjimadan butunlay voz kechishni, boshqalari esa chet tilini o'zlashtirishning asosiy faoliyati sifatida tarjimani saqlab qolish tarafdori bo'ldi.

A.I. Zimnyaya "Tarjima nutq faoliyatining bir turi" nomli maqolasida tarjimani murakkab nutqiy faoliyat sifatida belgilaydi. Tarjima uning barcha shakllarida, xususan, yozma tarjima, ketma-ket va sinxron tarjima shaklida "tinglash, gapirish, o'qish, yozish, fikrlash kabi turlari bilan bir qatorda murakkab, o'ziga xos, ikkinchi darajali nutq faoliyati turidir. Shunga ko'ra, ushbu jarayonni tahlil qilish ishda uchta asosiy yo'nalish bo'yicha amalga oshiriladi. Birinchidan, tarjimaning faoliyat ekanligini isbotlash yo'nalishi bo'yicha, bu esa, o'z navbatida, tarjimani umuman faoliyatning psixologik mazmuni nuqtai nazaridan tahlil qilish imkonini beradi.

Ikkinchidan, bu aqliy faoliyat emas, balki nutq ekanligi haqidagi dalillar. Uchinchidan, nutq faoliyatining ushbu turining murakkabligi, o'ziga xosligi va ikkinchi darajali xususiyatini boshqa turlarga nisbatan tahlil qilish nuqtai nazaridan. Tarjimaning nutq faoliyatining murakkab turi sifatida ta'rifi qabul qilingan va takrorlangan xabarni qayta ishlash xususiyatini anglatadi. Demak, tinglash va o'qishda qayta ishlash tabiati retseptiv, nutq va yozishda esa unumli bo'lsa, tarjima "reseptiv-mahsulotli faoliyat" sifatida tavsiflanadi.

Masofadan o'qitish kursining maqsadi eng umumiy ko'rinishda birinchi navbatda, o'rganilayotgan tilda muloqot og'zaki shakliga tinglash va gapirishga o'rgatish bilan belgilanadi. Bundan tashqari, kurs uzaytirilishi muloqot yozma shakllariga jiddiy

e'tibor qaratish imkonini beradi. Yozma muloqot nutqiy faoliyatning o'qish va yozish (yozma nutq) kabi turlarini o'zlashtirishni ko'zda tutadi. Masofadan o'qitish kursida ta'lim maqsadlarini kengaytirish ilgari egallagan nutqiy malakalarini faollashtirishni, kommunikativ malakani yanada yuqori darajasini shakllantirish hamda foydalanuvchilarning grammatik bilimlarini yanada chuqurroq tizimlashtirishni ko'zda tutadi.

Masofadan o'qitish kursida quyidagi qoidalarni asosiy qoidalar deb hisoblash mumkin.

1. Masofadan o'qitishda chet tillariga o'qitishda kommunikativ, shaxsiy faoliyatli va tizimli yondashishlari bilan o'zaro bog'liqligi. Maqsadlarini kengaytirish ta'limga turli yondashishlar o'zaro bog'liqligini, texnologiyalar turli-tumanligini talab qiladi. Masofadan o'qitish kommunikativ yo'nalish tarkibiy qismi sifatida qarab va undan markaziy texnologiya sifatida foydalanib, metodik masalalarni yanada samarali hal etishga yordam beruvchi boshqa ma'lum yondashishlarning ijobiy ta'sirini hisobga olmaslik mumkin emas. Masofadan o'qitish bilan bir qatorda, kommunikativ omillarni hisobga olish chet tilida munosabatlar jarayonini yaxshilashga yordam beradi.

Shaxsiy-faoliyatli yondashish-foydalanuvchini o'quv jarayoni-markaziy shaxs qiladi. Foydalanuvchilarning kommunikativ faoliyatlari asosida yotuvchi til bilimlarini tizimlashtirish ularning kommunikativ salohiyatlari darajasini oshirishga yordam beradi.

2. Chet tilini o'zlashtirish-uni o'zlashtirish shaxsiy psixologik jarayonlar bilan uzviy bog'liqdir. Ma'lumki, bilimlar hajmi qanchalik katta bo'lmasin, ular insonni individual sifatlari va shaxsiy yo'nalishlari bilan mos kelgunicha til bilimlaridan foydalana olmasligi ma'lum. Har bir so'z, ibora, gap, shaxsiy qadriyatlarini, afzalliklari munosabatlari tartibida o'z o'rnini topganidan keyin ular shaxsning o'zini ifoda etish, tashkil qilish va amalga oshirish vositalari sifatida foydalanilishi mumkin. Chet tilini o'rganishni shaxsga va uning shaxsga o'zaro ta'sirlarini hisobga olish o'quv munosabatlarini haqiqiy munosabatlarga yaqinlashtirib, kommunikativ jarayonlarni o'zlashtirishga yordam beradi.

3. O'quv vaziyatlarining maksimal motivatsiyaliligi. Odatda chet tilini o'rganish motivatsiyasini ta'minlashni xohlab, foydalanuvchilarga kelajakda undan foydalanish istiqbollari tushuntirish lozim. Bunday kechiktirilgan o'rganish motivatsiyasi alohida olingan darsda va bundan tashqari, mashg'ulotning har bir holatida doim ham foydali bo'lmaydi. Shuning uchun, maktab jadal kursi asosiy shartlardan biri sifatida darsda kommunikativ o'zaro aloqalar sharoitlarida foydalanuvchilarning qiziqishlarini maksimal hisobga olishni ilgari suradi. Har bir darsda motivatsiyasini ta'minlash munosabatlar har bir ishtirokchisi fikr va mulohazalarini e'tiborga olishni, uning nuqtai nazarini hurmat qilishni ko'zda tutadi. O'quv vaziyatlari hayotdan ajralgan yoki juda ham umumlashtirilgan bo'lmasligi kerak. Har bir modellashtiriladigan vaziyat

foydalanuvchilar uchun hayotiy ahamiyatga ega hisoblanishi bilan o‘qishning muvaffaqiyatliligi ta’minlanadi.

4. Ta’limning barcha komponentlari emotsional ijobiy boyitilganligi. Masofali o‘qitishda inson bosh miya ikki yarim sharlarining vazifalari turliligi to‘g‘risidagi qoidaga keng tayaniladi, yarim sharlarning biri (chap tomon) ma’lum idrok etish mantiqiy shakllari uchun, boshqasi (o‘ng) emotsional shakliga javob beradi. Bu holat asosan borliqni idrok etish va o‘rganish mantiqiy usullarida yashiringan (shunday qilib insonga berilgan imkoniyatlar faqat yarmini ishga soluvchi) o‘qitish uslublarini qayta ko‘rib chiqishga majbur etadi.

**FOYDALANGAN ADABIYOTLAR:**

1. „Sano standart“ nashriyoti Toshkent 2012. 37-83 betlar
2. I.G ‘ofurov, O ,M o ‘minov, N.Qambarov. - Toshkent: Tafakkur-Bo‘stoni, 2012.( 216 b.)
3. Baynham, M. 1983. Mother Tongue Materials and Second Language (312-318b.)
4. A.I. Zimnyaya “Tarjima nutq faoliyatining bir turi” (25-31b.)